



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR - AVGUST
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-avgust oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6012,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,8 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2022 yil yanvar-avgust


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 8,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 19,0 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 119,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 2,0 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



2022-yil yanvar-avgust

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	11 570,6	11 489,5	-81,1
Sharof Rashidov tumani	14 197,1	38 044,0	23 846,9
Zomin tumani	14 463,5	5 473,4	-8990,1
Jizzax shahri	50 013,4	49 604,1	-409,3
Forish tumani	3 780,1	5 669,9	1889,8

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 41,6 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 31,8 % ni va G‘allaorol tumani 9,6 % ni tashkil etdi.

65,5 %


2021- yil

24,0 %

2022- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-avgust oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5579,6 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,8 % ini tashkil etdi.


2021-yil yanvar-avgust

91,8 %

2022-yil yanvar-avgust

92,8 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida o'rtayuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 22,7 % (16,6 %) ni, o'rtayuqiy texnologiyali – 23,2 % (19,6 %) va quyi texnologiyalisi - 46,9 % (55,6%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,5 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,2 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 80,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,9 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,6 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,7 % (2021- yilning yanvar –avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,7 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	28 263,0	11 415,0	-16 848,0
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	42 392,1	39 693,7	-2 698,4
Paxta chigiti, t.	43 627,0	18 030,0	-25 597,0
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	3 169,0	4 979,0	1 810,0
Paxta linti, t.	2 685,5	788,0	-1 897,5
Trikotaj polotnolar, t.	1 865,0	1 248,0	-617,0

2022- yilning yanvar-avgust oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 39,6 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (6,4 % kamaygan), 11,4 ming tonna paxta tolasi (59,6 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 18,0 ming tonna paxta chigiti 58,7 % ga) kamaygani kuzatildi.


Yumshoq bug‘doy va spelta uni
93,6 %
Paxta tolasi, t.
40,4 %
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati ulushi 2,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 83,0 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-avgust oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,2 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 80,1 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 71,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 138,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 117,8 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1041,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-avgust oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 119,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 811,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 53,8 % ni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 44,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 115,5 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 113,3 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1562,2 mlrd. so'mni tashkil etdi

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 123,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 %, fizik hajm indeksi 75,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 237,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 14,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 38,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 93,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni, fizik hajm indeksi 133,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 247,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 121,5 % ga oshgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 102,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 184,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 257,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 4,3 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 119,0 % ga o'sishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	177 248,2	209 178,7	31 930,5
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	7,6	3,3	-4,3
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	49 459,2	48 220,8	-1 238,4

2022-yil yanvar-avgust

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 56,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	45 782,0	41 166,1	-4 615,9
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	12 776,9	15 409,2	2 632,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 11,3 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 15,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2943,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 124,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 48,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-avgust

21,0%

2022-yil
yanvar-avgust

22,2%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-avgust

79,0%

2022-yil
yanvar-avgust




77,8%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 22,2 % (2021- yil yanvar-avgust oylarida 21,0 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 37,8 % ni va Paxtakor tumani 17,7 % ni, Sharof Rashidov tumani 9,3 % ni hamda Zarbdor tumani 9,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (152,3 %), Sharof Rashidov tumanida (303,6 %) hamda Paxtakor tumanida (233,8 %), qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 27,9 % shuningdek, G'allaorol tumani 36,4 %, ni, hamda Paxtakor tumani 8,4 % ni tashkil etdi.



2022-yil yanvar-avgust

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 25,1 % shuningdek, G'allaorol tumani 45,7 %, Sharof Rashidov tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

993,1 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-avgust

1554,0 mlrd. so'm




2021- yil yanvar-avgust

2289,6 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-avgust



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 37,8 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 9,3 % ni, Paxtakor tumani esa 17,7 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 33,2 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 19,0 % ni, Zafarobod tumani esa 11,7 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyati

2020- yil

3476,0 mlrd. so'm

2021- yil

4572,5 mlrd. so'm

2022- yil

6012,9 mlrd. so'm



2020- yil

102,7 %

2021- yil

114,0 %

2022- yil

105,0 %

Jizzax viloyati

105,0

6012,9

Jizzax shahar

107,3

1996,3

Arnasoy

100,3

143,0

Baxmal

100,3

47,5

G'allaorol

170,5

1143,0

Sharof Rashidov

107,7

300,9

Do'stlik

99,4

459,7

Zomin

100,3

198,6

Zarbdor

105,0

208,9

Zafarobod

134,6

702,4

Mirzacho'l

100,1

105,2

Paxtakor

112,2

338,5

Forish

115,1

330,5

Yangiobod

103,2


38,4

FHI, % da

mlrd. so'm



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (10 614,0 ming so'm), Zafarobod (13 552,2 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (6 355,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 145,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 078,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,2 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2028,9 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 4 366,0 ming so'mni, Paxtakor tumanida – 3 184,7 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 5 952,0 ming so'mni tashkil etdi.

Jizzax viloyati



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3936 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1160 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,5 % i) Jizzax shahriga, 690 tasi (17,5 %) Sharof Rashidov tumaniga, 405 tasi (10,3 %) G'allaorol tumaniga, 320 tasi (8,1 %) Zomin tumaniga va 213 tasi (5,4 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil
475 dona

2021- yil
665 dona

2022- yil
624 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil
3 186 dona

2021- yil
3 810 dona

2022- yil
3 936 dona